



O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BUXORO VILOYATI HOKIMLIGI
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH MARKAZI BUXORO
VILOYATI HUDUDIY BO‘LINMASI**

O‘ZBEK TILI VA UNING TA’LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

**(O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining
33 yilligiga bag‘ishlangan an’anaviy respublika ilmiy-
amaliy konferensiyasi materiallari)**

Buxoro, 20-oktabr, 2022-yil

“Durdona” nashriyoti

UO‘K 81(575.1)

81.2g(5U)

A 18

Yuldasheva D.N.

“O‘zbek tili va uning ta’limi taraqqiyoti: muammo va yechim” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. [Tekcm] 19-oktabr 2022-yil. / D/N/Yuldasheva. - Buxoro: " Durдона " nashriyoti, 2022. - 290 c.

KBK 81.2g(5U)

Mas’ul muharrir

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G‘aybullayeva N.I.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) Ahmadova U.Sh.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma’lumotlari, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari shaxsan mas’uldirlar.

© Buxoro, 2022 “Durдона” nashriyoti

ISBN 978-9943-5871-0-6

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligiga 33 yil to‘lishi munosabati bilan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi va anjuman materiallari to‘plam shaklida nashrga tayyorlandi.

Anjuman quyidagi sho‘balar bo‘yicha ish olib borishi ta’minlandi:

- O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari;
- Amaliy tilshunoslik masalalari;
- O‘zbek lug‘atchiligi muammolari;
- Davlat tilida ish yuritish masalalari;
- O‘zbek alifbosi va imlosi muammolari;
- Soha lingvistikasida yechimini kutayotgan muammolar;
- Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili ta’limi masalalari;
- Adabiyotshunoslikda so‘z masalasi.

Mazkur anjumanning maqsadi o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo‘llanish ko‘lamini yanada kengaytirish, shuningdek, o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi mavqeyini yanada yuksaltirish, davlat tilining rivojlanishi, tarixiy taraqqiyoti, istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, o‘zbek nazariy tilshunosligi, leksikologiya hamda leksikografiyasi, til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar va amaliy filologiyani rivojlantirish, o‘zbek tili ta’limi muammolari, davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati masalalari borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy, amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

МУНДАРИЖА**Rasmiy ochilish**

Zaripov B.	Давлат тили – миллий тараққиёт ва соғлом тафаккур мезони	4
Xamidov O.X.	Тил – миллатнинг ўзлиги	7
Rustamov A.	Учинчи ренесансга давлат тили билан эришамиз	9
Muxammedov M.M.	Тил – миллат кўзгуси, миллат кўёши	15
Jamilova B.S.	Ona tiliga muhabbat – millat qudratiga dalolat	18
Quvvatova D.H.	Юрагимнинг остида сайраб турган булбулим	21
Samandarova G.Y.	O‘zbek tili – millat g‘ururi	24
Yuldasheva D.N.	Ўзбек тилидек сўзга, иборага, ибрату ҳикматга бой тиллар санокли	25

1-sho‘ba. O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalari

Abuzalova M.Q.	Лингвистика ва соҳалар ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида	32
Axmedov A.R.	Qiyosiy-tarixiy metod	38
Asadov T.H., Mardonova S. O.	Badiiy asarda individual neologizm-semalar xususida	44
Hamdamova S. Sh.	“Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur”	49
Nazarova S.A., Xojiyeva M.Y.	[I~O] qurilmali birikmalarning badiiy nutqqa xoslanishi	53
Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y.	[I~F] qurilmali fe‘lli birikmalarning nutqiy imkoniyatlari	60
Po‘latova Z.M.	Tilning taraqqiyot bosqichlari	66
Rajabov D.Z., Bozorova G.Z.	O‘zbek tilidagi ayrim pleonastik birliklar tasnifi xususida	68
Sa‘dullayeva M.Q.	O‘zbek xalq maqollarida “muhabbat” konseptining antroposentrik tadqiqi	73
Safarova M.Z.	Etnotoponimlar xususida (Vobkent tumani misolida)	76
Tilavova M.A.	Frazeologik birliklarning badiiy matndagi o‘rni	80

2-sho‘ba. Amaliy tilshunoslik masalalari

Abuzalova M.Q., Boltayeva N.O`.	Tabassum –muloqotning universal vositasi sifatida	84
Adizova N.I.	Shoir Erkin Vohidovning antonimlardan foydalanish mahorati (<i>shoir dostonlari misolida</i>)	89
Ahmadova U.Sh., Latipova D.K.	Hunarmandchilik sohasida perifrazalar	95
Aminova M.	Insondagi ijobiy xarakter-xususiyatni baholovchi	99

O‘ZBEK TILI VA UNING TA‘LIMI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIM

maqollarning semantik guruhleri		
Astanova G.A., Mirzoyeva Y.Y.	“Shimora”mi yoki “shumora”	106
Bafoyeva N. A.	Abdulla qodiriyning “o‘tgan kunlar” romanida tarixiy antroponimlar	109
Bozorova G.Z.	Плеоназмнинг соҳаларда қўлланиш хусусиятлари	115
Fattoyeva R.B.	Bobur she'riyatida yorning qomati bilan bog'liq o'xshatishlar	120
Jumayeva M.E.	Jahon tilshunosligida lingvokulturologiya tadqiqi	123
Jo'rayeva L.J.	Badiiy nutq – tilning obrazli ifodasi sifatida	129
Raxmonova F.	Badiiy asarlarda dialektik birliklarning qo'llanilishi (“shum bola” qissasi misolida)	133
Toirova G.I., Jumaeva D.B.	Antroponimik- murojaat birliklarining vazifalari	137
Toirova G.I., Quziyeva T.F.	O'zbek va ingliz tillarida qisqartma so'zlarning ifodalanishi	141
Umarova D.F.	Сельское хозяйство на английском и узбекском некоторые фразеологические союзы	147
Uchqunova A.S.	Buxoro shaharidagi kasb-kor bilan bog'liq godonimlar	154
Xamdanova G.X.	Somatizmning madaniyat va tildagi o'rni	158
Yusupova D.Y.	H. Xudoyberdiyeva she'rlarida so'z zimmasiga yuklangan ma'no	163
Yo'ldosheva N.Q.	Mehnat konseptini ifodalovchi leksemalar tahlili	167
O'rinova M.O.	O'zbek xalq maqollarida arxaizmlar	172
3-sho'ba. O'zbek lug'atchiligi muammolari		
Nazarova D.G'.	Мактаб она тили таълими ва ўқув луғатчилиги муаммолари	175
Xayrullayeva M.O.	Buxoro viloyat vobkent tuman mikrotoponimiyasining mavzu guruhleri tasnifi	182
G'aybullayeva N.I.	Тиббиёт лексикографияси ва унинг тили хусусида	187
4-sho'ba. Davlat tilida ish yuritish masalalari		
Qobilova S.S.	O'zbek tili davlat tili sifatida	192
Yunusova M.Sh.	Тил - миллий ўзлимиз тимсоли	194
5-sho'ba. O'zbek alifbosi va imlosi muammolari		
Hojiyeva N.H.	Ўзбек тилида мевачилик лексикаси	198
6-sho'ba. Soha lingvistikasida yechimini kutayotgan muammolar		
Baxriyeva U.M.	Teri kasalliklarini ifodalovchi tibbiy lingvistik birliklar	203

**ONA TILIGA MUHABBAT – MILLAT QUDRATIGA
DALOLAT**

Bashorat Sattorovna Jamilova,
BuxDU professori

Shonli tarixga aylanib ulgurgan XX asr talay taloto‘plari bilan birga turkiy tilimiz, ona tilimiz nufuzini oshirishga hissa qo‘shgan fidoyilari, ijod va ma‘rifat ahlini ham xotiraga muhrladi. Asr boshlarida jadid ma‘rifatparvarlari, xususan, Behbudiy, A.Avloniy, Elbek singari ziyolilar ijodida ona tilini asrash alohida mavzu bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Ayni haqiqatni e‘tirof etgan xalq shoiri Erkin Vohidov shunday yozgan edi: “Tilimizning bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqei uchun biz ko‘p jihatdan o‘tgan asr boshida yashagan jadid ziyolilaridan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Ular o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlaridan dadil va mohirona foydalandilar, xalqda milliy g‘urur, ona tiliga hurmat tuyg‘usini tarbiya qildilar”.

Darhaqiqat, ona tilimiz shuhratini yosh avlod ongiga singdirish mustabid sho‘ro tuzumi davrida ham butunlay yo‘qolib ketmadi. Bil‘aks, ko‘plab shoir va yozuvchilar ijodida mavzuning tamsiliy talqinlari kuzatildi. Jumladan, Oybekning "Bola Alisher" qissasi diqqatga sazovor. Avvalo, qissa bolalar kitobxonligi namunasi ekanligi bilan e‘tiborni tortadi. Unda adib Oybek bo‘lajak so‘z sultoni iste‘dodining eng yorqin qirralari, xususan, professor N.Karimov e‘tirof etganidek, "Navoiy" romanida "chetlab o‘tgan" "inson va shoir sifatidagi shakllanish bosqichlarini" aks ettirishni maqsad qilib olgan. Shuningdek, Oybek qissada ulug‘ mutafakkirning turkiy tilga yuksak muhabbati va bunga turtki bo‘lgan omillarni navoiyona talqin etadi.

Tabiiyki, Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug‘atayn" asari va unda keltirilgan turkiy so‘zlarning ma‘naviy tovlanishlari, bo‘yoqdorligi Oybekdek ijodkorni befarq qoldirmagan. Shu sababli, bu hodisa qissada ham detal', ham uslub sifatida o‘z in‘ikosini topadi. Masalan, kichkina Alisher tog‘asi, otasi va uning do‘stlari huzurida g‘azal o‘qiganda, Qur‘onning mag‘zini chaqishga kirishganida turkiy tilga alohida muhabbat bilan qarashi ta‘riflanadi. Xususan, tog‘asi Mirsaid "go‘yo Alisherning qalbiga kirmoqchidek" shunday deydi: " ..Fors shoirlari yuksak tuyg‘ular, teran fikrlar ila to‘la ajib she‘rlar yaratmishlar. Bizning turk shoirlari ham ularga ergashib, forsiy she‘rlar ijod etishni odat qilib olmishlar. Turkiston o‘lkamiz vodiylari,

sahrolari keng, tog‘lari buyuk, aholisi turk-o‘zbekdur. O‘zimizga xos odatlarimiz, an‘analarimiz, qo‘shiqlarimiz, dostonlarimiz, ertaklarimiz bor. Bular--cheksiz boyligimiz. Ayniqsa, tilimiz go‘zal, shirin va rangli! Jiyan, o‘z yo‘lingni topsang, bas". Qissada bu tafsilotning ikki--uch marta keltirilishi bejiz emas, albatta. Birinchidan, Oybek bu asarni Navoiy haqidagi teran tadqiqotlaridan so‘ng, badiiy ijodining kamolot davrida yozgan. Ya‘ni, adibni ulug‘ mutafakkir asarlari tili, ruhiyatiga anchayin oshno edi, deyish mumkin. "Oybek oltmish yoshga to‘lishi munosabati bilan,– deb yozadi N.Karimov, – o‘z hayot yo‘lini qayta nazardan o‘tkazib, bu yo‘lning mashaqqatli tomonlarini faylasuf shoir so‘zi bilan munavvar etish, ulardan falsafiy xulosalar chiqarishga urindi". Anglashiladiki, adibning bu qissasi aynan shu yosh mezonlarida yozilgan. Ikkinchidan, Oybek qissada dastlab, Alisherning yoshligidayoq qulog‘iga quyilgan o‘gitlar keyinchalik, "Muhokamatul lug‘atayn"dek yuksak asarlar yaratilishiga zamin yaratdi, degan g‘oya ilgari suriladi. Oybek bu manbadan ijodiy ilhomlanib, "Bola Alisher" qissasini qadimgi turkiy so‘zlar bilan jilolantirishga erishgan deya olamiz. Masalan, qissada yozuvchi so‘zlashmoqning "**javrash**" (birov supurgining ta‘rifini aytib *javrisa*), "**suxanvarlik**", "**shivirlashish**" (goho ular o‘zaro *shivirlashib* qo‘yurlar; omad, dedi kiimdir *shivirlab*); yemoqning "**kemirish**" (chorikorlar kesakni kemirurlar), "**shimimoq**" (Alisher tog‘asi tutqizgan bir qobirg‘ani asta *shimgani* holda), "**oshalamoq**" (o‘g‘il bola degan oshni *oshalab-oshalab* eydi-da!), "**chimdimoq**" (hushyor ot taqqa to‘xtaganicha turib qoldi. U bolaning boshiga uzoq turdi-da, atrofda ohista aylana-aylana o‘t *chimdiy* boshladi); qaramoqning "**angraymoq**" (chol bir on *angrayib* qolgach), "**hayratlanmoq**", "**tomosha qilmoq**" (Alisher sahifalarning nozikligi, naqshlarning nafisligi, oyatlarning xushxat bitilganiga *hayratlanib*, zavq va maroq ila *tomosha qilardi*), "**razm solmoq**" (Alisherga boshdan oyoq razm soldi), "boshini ko‘tarib" (Alisher to‘satdan seskanib boshini ko‘tarar ekan, bepoyon sahroda yolg‘iz o‘ziyu saman otidan o‘zgani ko‘rmadi.), "ko‘zi yo‘lda to‘rt" bo‘lmoq, "intizor", "poylab" singari turli-tuman ma‘nolarda qo‘llaydi. Qissada bu kabi so‘zlarni juda ko‘p uchratish mumkin. Ta‘kidlab ko‘rsatilgan so‘zlar Navoiy davri ruhini berishi bilan birga, Oybekning badiiy so‘zga, ona tilimizga e‘tiborini yorqin ko‘rsatadi. Qolaversa, adib ulug‘ shoirning turkiy xalqlarga yuksak e‘tibori orqali o‘zining g‘oyalarini bayon eta olgan. Binobarin,

N.Karimov "Navoiy – Oybek ijodining qalbi",– deganda ko‘proq ana shu tuyg‘ularni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Muhimi, Oybek o‘z asarlari orqali Navoiyni zamondosh o‘quvchiga yaqinlashtirishdan tashqari, o‘zining dolzarb ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, tilimizning, xalqimizning ma`nan yuksak va serqirra ekanligini yosh avlodga "badiiy vasiyat" qilib qoldirganiga shubha yo‘q.

Jahon adabiyoti va tarixida o‘z ona tili bilan faxr, iftixor tuygan xalqlar, adibu shoirlar behisob. Ammo Rasul Hamzatov nomi ona tiliga muhabbat timsoli sifatida eslanishi bejiz emas. U o‘z Dog‘istoni, avar tilini shu qadar suyib, ardoqlab, ta`rif-u tavsif etadi-ki, o‘qigan kitobxon ham o‘z tiliga shunday muhabbat qo‘ya olishni diliga tugadi. "Tog‘lik ona, – deb yozadi shoir,– hech qachon til qoidalari buzilgan she`rni jigarbandiga o‘qib bermaydi”.

R.Hamzatov qasida va rivoyatlarida, o‘z xalqi tarixiga bag‘ishlovlarida ham ona tili haqidagi hayotiy hikoyalarni aks ettirgan. Masalan, uning xotiralarida keltirilishicha, Parijda bir hamyurtini ko‘rib qoladi. Haligi tanishi inqilobdan avval Italiyaga ketib, o‘sha yoqlarda qolib ketgan mashhur rassom ekan. Uning rasmlarida garchand Vatan sog‘inchi ufurib turgan bo‘lsa ham suhbat chog‘ida ovuliga qaytmaslik sababini rassom shunday tushuntiradi: "Endi kech. O‘z vaqtida men Vatandan qaynoq yuragimni olib ketgandim, endi unga keksaygan suyagimni olib qaytamanmi?"

Shoir yurtiga qaytgach o‘sha rassomning qarindoshlari, onasini topib, xursand qilmoqchi bo‘ladi. Ona esa: "Sizlar avarcha so‘zlashdinglarmi?" ,– deb so‘raydi. Ular tarjimon orqali gaplashganini eshitgan ona yuziga qora chodrasini tushiradi. Chunki onalar o‘z o‘g‘lining o‘lganini eshitganda shunday qilisharkan. "Rasul, sen yanglishibsan, – deydi rassomning onasi, – mening o‘g‘lim allaqachon o‘lgan ekan. Agar mening o‘g‘lim hayot bo‘lganda, avar onasi o‘rgatgan tilni unutmagan bo‘lard".

Bu bitikni o‘qigan kitobxonning eti jimirlab ketadi. Negaki, R.Hamzatovning o‘zida ham ana shunday tuyg‘u singib ketganidan, aytgani rivoyat emas, haqiqatligini yaqqol namoyon qila olgan. Zotan, shoirning ona tiliga bag‘ishlangan quyidagi satrlari ham bejiz emas:

Aytsalar ham avar tili kambag‘al,
Menga ona tilim suyukdan suyuk.
BMT minbarida tegmasa ham gal,
Menga ona tilim buyukdan buyuk.

Darhaqiqat, o‘z ona tilining jahon minbaridan yangrashini orzu qilish – xalqi va Vataniga yuksak e‘tiqod namunasidir. Biz bu bilan g‘ururlansak arziydi.

Turkiyada chiqadigan "Jumhuriyat" gazetasi o‘z sahifalarida "O‘zbek tili BMTda" sarlavhali bosh maqola e‘lon qildi. Unda **o‘zbek lideri tarixda ilk bor o‘z ona tili - buyuk Navoiy, Sohibqiron Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberding tilida nutq so‘zlashi tarixiy voqea** ekanligi ta‘kidlangan. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o‘z ma‘ruzasini ona tilimizda bayon etishi o‘zbek tilimiz qadrini baland bo‘lganidan dalolat. Bu qadr-qimmatni yanada yuksaltirish esa shu Vatan, xalq farzandlarining, ayniqsa yosh avlodning vijdon amri, iymon-e‘tiqodi hamda faxr-iftixoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 1998. –Б.60.
2. Элбек. Тил // Иштирокиюн. – 1920, 21 март.
3. М.Аъзам. Сайланма. 1-жилд. Т.: Чўлпон, 2005.– 140-141-б.
4. Оубек. “Бола Алишер” қиссаси ва унинг муаллифи тўғрисида. Китобда: Оубек. Bola Alisher. Qissa. –Т., 2005.– 86-б.

**“ЮРАГИМНИНГ ОСТИДА САЙРАБ ТУРГАН
БУЛБУЛИМ”**

Дилрабо Ҳабибовна Қувватова,
БухДУ профессори

“Тил – миллатнинг кўзгуси”, “Тил – миллатнинг рухи”. Бу ибратомуз фикрлар бугунги кунда замонавий мақоллар сирасига кириб улгурди. Зеро, мазкур жараён жанрнинг яшовчанлик хусусиятини яна бир бор тасдиқлаб турибди. Зеро, улў маърифатчи А.Авлоний тўғри таъкидлаганидек: “Ҳар бир миллатнинг бу дунёда борлигин кўрсатурғон ойина ҳаёти – унинг тил ва адабиётидир”. Ҳақиқатан, тилда ҳар бир халқнинг рухи, қалби, энг юксак туйғулари акс этади. У – миллатнинг маънавий бойлигидир.

Адабиётимиз тарихи саҳифаларини кўздан кечирсак, Юсуф хос Ҳожибдан замонавий шоирларгача тилнинг маънавий қудратига юксак баҳо берилганлигини кузатиш мумкин. Жумладан, Юсуф Хос Ҳожиб шундай ёзади: